

BIRINCHI O‘ZBEK DRAMASI – “PADARKUSH”

Eshboyeva Dinora

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Islomshunoslik yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi*

E-mail: dinoraeshboyeva23@gmail.com

Annotatsiya: XX asr jadid harakatining yirik namoyondasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning qalamiga mansub ko‘plab asarlar nashr ettirilgan. Ularning ichida birinchi o‘zbek dramasi - “Padarkush” Behbudiyning mahhur asaridir. Maqolada “Padarkush” dramasi yaratilishi va ahamiyati aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Padarkush, dramaturgiya, Abdurauf Samadov, Samarqand, nodon, ota qotili, boylik.

THE FIRST UZBEK DRAMA – “PADARKUSH”

Abstract: Many works written by Mahmudhoja Behbudi, a major representative of the 20th century jadid movement, have been published. Among them, the first Uzbek drama – “Padarkush” is a famous work of Behbudi. The article discusses the creation and importance of the drama “Padarkush”.

Key words: Padarkush, dramaturgy, Abdurauf Samadov, Samarkand, ignorant, parricide, wealth.

XX asr o‘zbek adabiyotida yangi janr - dramaturgiya paydo bo‘ldi. Bu davrgacha hali hech bir adib bu janrda ijod qilmagan. To‘g‘ri “Padarkush”dan bir oz oldin Abdurauf Samadovning “Mahramlar” pyesasi nashr ettirilgan. Bu Behbudiyni dastlabki o‘zbek dramasi muallifi, O‘zbek dramaturgiyasining otasi, “Padarkush”ni dastlabki o‘zbek dramasi deyishimizga monelik qiladi. Ammo ushbu asar dastlab “O‘liklar” nomi bilan tatar tilida nashr ettirilgani va muallifning tatar millatiga mansub bo‘lgan, qolaversa, “Mahramlar” “Padarkush”dan keyin sahna yuzini ko‘rgan va “Padarkush”dek katta shov-shuvga sabab bo‘lmagan. Shu jihat kelib chiqib, Behbudiyni O‘zbek dramaturgiyasining otasi va asoschisi deb aytishimiz o‘rinlidir. Shuningdek, o‘zbek teatrining rus millatiga mansub tarixchilari “Padarkush” dramasi Fonvizinning “Dunduk” (“Недоросль”) pyesasidan ta’sirlanib yozilgan deydi. Ammo 1877-1917 yillar oralig‘ida Turkistonga tashrif buyurgan teatr gruppalari tomonidan “Dunduk” umuman namoyish etilmagan. Ammo ushbu teatr gruppalari Turkiston xalqini, xususan, Behbudiyni teatrga qiziqishini ortishiga sabab bo‘lgan.

Abdurauf Samadovning “Mahramlar” pyesasi bachchabozlik kabi yomon illat haqida yozilgan bo‘lsa, “Padarkush”da ma’rifatsizlikning millat va uning har bir a’zosi uchun bo‘ladigan fojiasi namoyon etilgan.

1911-yilda yaratilgan “Padarkush”, 1913-yilgagina kelib sahna yuzini ko’rdi. Bunga sabab, birinchidan, mustamlaka hukumati Turkistonni ma’rifat yo’liga kirib, o’z huquqini tanishidan manfaatdor emas edi. Shu o’rinda Turkiston general-gubernatori A.Kuropatkinning quyidagi so’zlarini eslash o’rinlidir: “Biz tub joy xalqni taraqqiyotdan, maktabdan, rus hayotidan 50 yil chetda tutdik”. Ikkinchidan, turg’unlik va tutqunlik tufayli avj olgan jaholat, mutaassiblik. “Kimiki sahnada ko’rsang oni jasorati bu”, deb yozgan edi Tavallo¹. Albatta, bu bejiz emas. Xullas, 1911-yil yozilgan “Padarkush” asari 1913-yilda nashr ettirildi. Kitobning jildiga “Borodino janggi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo’lishining yubiley sanasiga bag’ishlanadi” degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko’rsatadiki, uni nashr ettirish oson bo’lmagan. 1912-yil avgustda nashrga tayyorlangan asar 1913-yilda nashr ettirildi.

Adabiyotshunos Boybo’ta Do’stqorayevning topgan ma’lumotlariga qaraganga, 1912-yil 26-avgustda Samarqanddagi Tillaqori madrasasida bo’lib o’tgan “Vatan muhorabasi bayrami”da Behbudiy o’z asarini “Samarqand voliyasi janoblari”ga topshirib “vatan muzaffariyati yodgori uchun oning nashriga ruxsat berilmak”ni iltimos qilgan. “Voliy janoblari, - deb yozilgan u topgan ma’lumotda, “ko’b xursandlik ilan olub, nashrga ruxsat bermakni va’da qilibdurlar”. “Padarkush” shunday sa’y-harakatlar natijasida bo’lsa kerak, Buxoroda chiqqa boshlagan “Turon” gazetasining 1913-yil 1 va 3 yanvari sonlarida bosila boshlaydi. Ammo gazetaing yopilishi munosabati bilan asarning so’nggi qismlari bosilmay qoladi. Nihoyat, “Padarkush” “Samarqand voliyasi” – harbiy gubernator general-mayor Iliya Oleshilidzening yordami va “matbuot ishlari Tiflis qo’mitasi”ning 1913-yil 23-iyuli sanali ruxsati bilan Samarqanddagi Gazarov va Siyanov matbaasida bosilib chiqadi². Ammo asarni sahna yuzini ko’rishi 1914-yildagina amalga oshirildi. 1914-yil 15-yanvar Samarqandda, 16-fevral Toshkentda birinchi o’zbek dramasi – “Padarkush” sahna yuzini ko’rdi.

“Padarkush” asari o’zbek xalqi uchun o’ziga xos ibrat olarli asar bo’ldi. Asarda o’qimagan, bilimsiz farzandning o’z otasining o’limiga sababchi bo’lishi yoritib berilgan. To’g’ri boyning o’gli bo’lmish Toshmurod o’z qo’llari bilan otasini o’ldirmaydi, ammo uning o’limiga sabab bo’lgan o’g’rilikda uning qo’li ham bor edi. Asarda Domullar nomi bilan atalgan imom boyni o’g’lini o’qitishga, ilmi qilishga undaydi. Lekin boy bu fikrlarni loqal bir o’ylab ko’rish o’rniga Domullaning ustidan kulib shunday deydi: “O’qiganning biri siz, yemoqqa noningiz yo’q”. Boy rizq Allohdan ekanligini unutib qo’rgan edi. U boylarni hamma, hattoki ris va armanlar ham hurmat qiladi deb o’ylardi. Asarda teran ishlangan, hozirgi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan timsollardan biri Ziyoli timsoli bo’lib, uning tilidan quyidagi gaplar aytiladi: “Ilm va hunarsiz xalqning yeri asbobi kundan-kun qo’lidan ketganidek,

¹ Zaynobidin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo’ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.

² Naim Karimov. Mahmudxo’ja Behbudiy. Toshkent – 2010.

axloq va obro‘yi ham qo‘ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo‘lur”. Behbudiy shu Ziyoli tilidan Turkiston xalqi uchun ikki muhim yo‘nalishdagi olimlar zarur degan fikrni ilgari suradi. Biri diniy yo‘nalishdagi olimlar, ikkinchisi dunyoviy yo‘nalishdagi olimlardir. Ular yosh avlodning har biri uchun mas’ul ekanligi va ular xaqni taraqqiyotga erishishi uchun harakat qilishini yoritib beradi. Ammo shu suhbat asnosida boy xurрак otib uhlab qoladi. Ushbu kichkinagina manzara bilan Behbudiy juda katta ma’no va mazmuni bayon etadi. Bu har birimizni sergaglika chorlaydi. Agar ilm-fanga nisbatan boy kabi mas’uliyatsizlik bilan qrasak, xaqning ahvoli boy kabi ayanchli yakun topadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ushbu asari barcha davrlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xalq ilmsiz va ma’rifatsiz yo‘q bo‘lib ketishi, inson ilm bilangina muvaffaqiyat qozona olishi yaqqol namoyon etilgan. Shu o‘rinda Imom Buxoriyning “Ilmdan o‘zga najot yo‘q” deganlari o‘z ifodasini topadi. Shuningdek, muqaddas kitobimiz Qur‘onda ham nozil bo‘lgan birinchi oyat “O‘qi” bo‘lib, musulmon bo‘lgan har bir inson bu oyat orqali ilmning islomdagi va musulmonlar hayotidagi o‘rni naqadar buyuk ekanligiga guvoh bo‘ladi. Zero, inson faqat ilm bilangina chin musulmon bo‘ladi. Chunki Alloh taolaga jaholat bilan ibodat qilinmaydi. Mana necha asrlardan buyon ilmning insoniyat hayotida tutgan mavqei cheksiz ekanligi, ilmsiz insonlar jaholat botqog‘iga botishi yaqqol namoyon bo‘lib kelmoqda. Har bir inson ma’rifat bilangina insoniylikning yuksak darajasiga erishishi mumkin. Hech qachon jaholat bilan tinch, osoyishta yashay olmaysiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Naim Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent – 2010.
2. Zaynobidin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
3. Qosimov B. Maslakdoshlar. – Toshkent: Sharq, 1994.
4. Dinora Eshboyeva. (2023). MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY ASARLARINING AHAMIYATI. Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, 2(3), 83–86.
5. Eshboyeva, D. (2023). JADIDCHILIK HARAKATINING YO‘LBOSHCHILARI. GOLDEN BRAIN, 1(8), 147–149.
6. Dinora Eshboyeva. (2023). MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING JADIDCHILIK FAOLIYATI. Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, 2(3), 79–82.